VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

“AL-ADAB AL-MUFRAD “ ASARINING IJTIMOIY HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI

Xurshida Temirova Turobovna

Saida Doniyorova Sharof qizi

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabaisi

Jahongir Toshniyozovich Ibragimov

Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi assistenti

e-mail: Jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Imom al-Buxoriyning *“Al-adab al-Mufrad* “ asarining ijtimoiy hayotimizdagi ahamiyati, undagi odob-axloq tushunchalari va asarning mazmun-mohiyati tahlil qilinib, hozirgi zamonaviy jamiyatimizda insonlar o`rtasidagi munosabatlar haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar

Odob, axloq, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, inson, hadis, tahlil.

Аннотация

В статье анализируется значение произведения Имама аль-Бухари «Аль-Адаб аль-Муфрад» в нашей общественной жизни, понятия этикета и суть произведения, а также говорится об отношениях между людьми в нашем современном обществе.

Ключевые слова

Манеры, мораль, общество, общественные отношения, человек, хадисы, анализ.

Annotation

The article analyzes the significance of Imam al-Bukhari's work "Al-adab al-Mufrad" in our social life, the concepts of etiquette and the essence of the work, and talks about the relations between people in our modern society.

Key words

Manners, morality, society, social relations, human, hadith, analysis.

KIRISH

Har qanday jamiyat hayotida insonlar o`rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy odob-axloq masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv jarayonlarda insonlarning turli sohadagi muammolarini tub ildizlariga nazar soladigan bo`lsak, barcha masalalar ulug` ajdodlarimizdan meros bo`lib kelayotgan milliy an‘ana va qadriyatlarimiz, muqaddas e‘tiqodimizdan chetlashib borayotganligini ko`rsatadi.

Ijtimoiy axloq tushunchasi jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni, insonning jamiyatdagi qadriyatlari, maqsad va burchlarini anglatadi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

“Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg’ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo`lini izchil davom ettirish - eng dolzarb vazifamizdir”.[1]

Muhammad ibn Ismoil Buxoriy hadis ilmidagi tengsiz xizmatlari uchun “Imomud dunyo” – “Dunyo imomi”, “Hofizul kabir” – “Ulug‘ hofiz”, “Amirul mo‘minin fil hadis” – “Hadis ilmida mo‘minlarning amiri” nomlariga sazovor bo‘lgan zotdir.

U kishining shoh asari “Al-Jome as-sahih” bo‘lib, Qur’oni karimdan keyingi eng buyuk kitob deya e’tirof etilgan. Shuning uchun ham ushbu kitobga muhaddislar tomonidan o‘sha vaqtdan to hozirgacha juda ko‘plab sharhlar bitilgan. Biz ushbu maqolada imom Buxoriyning yana bir muhim asari “Al-adab al-mufrad” va uning ijtimoiy hayotimizdagi o`rni haqida qisqacha ma’lumot ulashmoqchimiz.

ASOSIY QISM

Al-adab al-Mufrad — Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy qalamiga mansub inson xulqini takomillashtirish haqidagi hadislar to‘plami. Kitobda Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizdan qolgan odob-axloq to‘g‘risidagi hadislar jamlangan. Asardan umumiy 1322 ta hadis joy olgan. Olimlar tominidan ushbu kitob Imom al-Buxoriyning boshqa kitobi - „Al-Jome as-Sahih“ hadislar to‘plamining soyasida qolgan deyiladi. Musulmon ulamolari o‘rtasida al-Jome 'as-Sahih va Sahihi Muslim Islomning Qur’ondan keyingi eng haqiqiy kitoblari ekanligi to‘g‘risida yakdil fikr mavjud.

Al-adab al-mufrad asarining ijtimoiy ahamiyati jamiyatdagi insonlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarda o`z aksini topadi. Ota-onaga e’tibor, hurmat, qarindoshchilik, silayi rahm, tarbiya, mehr va oqibat, yaxshilik, o‘zaro yordam kabi boshqa ijtimoiy munosabatlarning ijobiy ko`rinishlari sahih hadislar orqali yoritilgan.

Hadis: Abu Hurayra (r.a) aytdilar: "Rasulullоh (s.a.v.): "Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi", deganlar".[2]

Farzandlari uchun qayg`uradigan ota-onalarimizning, musofirlikda, vatandan uzoqda qiyinchilikda yurgan insohlarning , zo`ravonlik va zulmga uchragan mazlum kishilarning duolari Allohning huzurida shubhasiz qabul bo`lishi haqida xabar berilmoqda. Bu hadis jtimoiy hayotimizdagi o`zaro munosabatlarda ota-onamizni doimo e`zozlab, ularning duolarini olishimizga, bir-birimizga zulm qilmaslikka, mazlumlarning qalbiga ozor bermaslikka chaqiradi.

Hadis: Anas ibn Molik (r.a.) aytdilar: Rasulullоh (s.a.v.): "Rizqi keng va farovon bo’lishni va hayoti uzoqqa borishni yaxshi ko’radigan kishi qarindoshlaridan o’zini uzmasin", dedilar.[3]

Yuqoridagi hadisda qarindoshlar opa-singil, aka-ukalar bilan silai rahmni uzmaslik insonlar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning chiroyli ko`rinishlaridan biri ekanligi va qarindoshlar o`zaro mehr-oqibatli bo`lishlari haqida so`z ketadi. . Hadislarda keltirilishicha insonlar yaxshilik qilishni birinchi bo`lib qarindoshlardan boshlash keraligi haqida so`z boradi. Shuningdek asarda jamiyat

[1] Sh.Mirziyoyev Yangi O_zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: —O_zbekiston‖ nashriyoti, 2021. 9-bet
[2] Al-adab al-mufrad asari 17-bob. Ota-ona duosi haqida
[3] 28-bob. Silai rahm umrni ziyoda qilishi haqida

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

hayotidagi salbiy ko`rinishlardan biri bo`lgan g'iybat va fisqu-fasod tarqatish kabi illatlar haqida ham turli hadislar mavjud.

Hadis: Shubayl ibn Avf aytdilar: "Eshitgan yomon gapini yoygan odam o'sha yomon gapni to'qib chiqargan kishi kabidir".[4]

Bu hadisda giybat, turli yomon gap-so`zlarni tarqatuvchi odamlar haqida va bu illat ulariga zarar keltirishi haqida haqida so`z ketmoqda. Ko`rinib turibdiki, kitob o`z nomi bilan odobva axloq haqidadir. Odobga ulamolar tomonidan juda ko`p ta'riflar berilgan. Jumladan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (rohmatullohi alayh) adabul mufradga yozgan sharhlari "Odoblar xazinasi" asarida odobga berilgan quyidagi ta'riflarni keltiradi. "Maqtovga sazovor so`z va amalini bajarish odobdir";

"Karamli axloqlarni ushlash odobdir";

"O`zingdan kattani ulug'lab kichikka mehr ko`rsatishing odobdir";[5]

Shu va boshqa ta'riflar jamlanmasi haqiqiy Islom shariati qanday ekanini ifodalaydi. Odobni hozirgi kunda g'arbga tobe o'laroq madaniyat deyish ommalashgan. Masalan, "salomlashish odobi" deyish o'rniga "salomlashish madaniyati" deyiladi.

Imom Buxoriyning "Adabul mufrad" kitobi mana shunday muhim bir mavzuni bayon qilishni ko'zlagan kitoblardan biridir. Kitob nomidagi "mufrad" so'zi "fard" o'zagidan olingan bo'lib, "yolg'iz" degan ma'noni anglatadi. Bir so'z bilan aytganda, "Al-Adab al-mufrad"ni " faqatgina odob mavzusiga bag'ishlangan kitob" deyish mumkin yoki Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining so'zi bilan aytganda, "boshqa joyda topilmaydigan (yagona) odoblar" ham deyish mumkin.

Ijtimoiy hayotimizda atrofimizdagi insonlar bilan o`zaro munosabatlar jarayonida odob-axloq qoidalarida chegaradan chiqmaslik juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" asari musulmon kishi xulqlanishi kerak bo'lgan barcha odob-axloqlar jamlanmasidan iborat kitobdir. Shunday ekan, har bir mo'min-musulmon kishi ushbu kitobni nafaqat mutolaa qilishi, balki, uni o'zlashtirib, hayotiga tatbiq qilishi va bu kitob har bir xonadonning kitob javonida bo'lishi lozib deb hisoblaymiz. Asarda axloq masalalariga alohida e'tibor berilgan va unda keltirilgan hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan. Bular mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari insoning o'zini qanday bo'lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi komil insonni shakillantirish mezoni sanaladi. Hadislarda insonning ma'naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o'z bilimi bilan atrofadagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishida muhim omil – chiroyli xulqli bo'lish deb ko'rsatiladi.

Umuman insoniyat – odam zoti borki bu dunyoga behudayu bekorga kelgan emas. Odob axloqning avvali esa ilmdir. U orqali inson zoti o'zini, o'zligini, yaxshi xulq-atvorlarni, odobni o'rganib

[4] 151-bob. Yomon so'z tarqatuvchi kishi haqida

[5] IMOM BUXORIYNING "AL-ADAB Al- MUFRAD" ASARINING MOHIYATI (mirarab.uz)

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

o’zining hayotida tatbiq etadi. Zero har bir musulmon inson borki, o’ziga chiroyli odobni, axloqni lozim tutsa, ikki dunyo baxtu-saodatiga musharraf bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O_zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O`zbekiston nashriyoti 2021. 9-bet
2. IMOM BUXORIYNING “AL-ADAB Al- MUFRAD” ASARINING MOHIYATI. J.ELOV. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyati vakili, Mir Arab oliy madrasasi rektori. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1533
3. Ganiyeva Ma`rifat Xabibovna, Qayumov Qahramon Nozimjonovich, Sherov Ma`ruf Boltayevich. Ijtimoiy Ishga Kirish. Darslik – Toshkent: VNESHINVESTPROM nashriyoti 2020.
4. Normamatova M. N. Ijtimoiy ish nazariyasi. O`quv qo`llanma. – SamDU, 2020.
5. F.X.Nabiyev, S.X.Tadjiyeva. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik T:Fan va texnologiyalar. 2015 y.

WORDLY KNOWLEDGE